

MAHALLA INSTITUTINI RIVOJLANTIRISHDA UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA INTEGRATSIYASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19187742>

Ahmedova O'g'ilxon Nomozovna

*Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi
dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya

Mazkur maqolada jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirish jarayonida mahallaning ma'naviy tarbiya maskani sifatida boshqaruvning o'ziga xos instituti ekanligi tadqiq etilgan. O'zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib, uzluksiz ma'naviy tarbiyani targ'ib etishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *Mahalla, mahalla instituti, inson, jamiyat, uzluksiz ma'naviy tarbiya, qadriyat, muhit.*

Аннотация

В данной статье рассматривается роль махаллы как места духовного воспитания в процессе совершенствования духовной жизни общества как уникального института управления. Выявлено, что узбекские махаллы действительно являются местом национальных ценностей, способствующим несистематическому духовному воспитанию.

Ключевые слова: *Махалла, институт махаллы, человек, общество, непрерывное духовное воспитание, ценность, окружающая среда.*

Annotation

This article examines the role of the mahalla as a place of spiritual education in the process of improving the spiritual life of society as a unique institution of governance. It is revealed that Uzbek mahallas are truly a place of national values, promoting unsystematic spiritual education.

Keywords: *Mahalla, mahalla institution, person, society, continuous spiritual education, value, environment.*

KIRISH

Mamlakatda mavjud bo'lgan noyob bo'lgan mahalla instituti milliy-ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylashda, yurt tinchligi va osoyishtaligini mustahkamlashda, yoshlarni jismoniy va ma'naviy barkamol inson bo'lib tarbiyalashda muhim o'ringa ega bo'lib kelmoqda. Bunda mahalla oqsoqollari, kayvoni onaxonlar o'zlarining hayot tajribasi bilan yoshlarga ma'naviy tarbiya va saboq berib, o'zbek xalqi an'analari davomiyligini asrab-avaylab kelayotgani ibratlidir. Turmush madaniyati, ma'naviyat shunday narsaki, u bolalikdan, bog'cha yoshidan insonning tarbiyasiga kirgan taqdirdagina ijobiy bir natija beradi. Qo'ni-qo'shni, mahalla-ko'y o'rtasida birgalikda gul va ko'chat ekish, devorlarni oqlash, yon-atrofnii obod qilish orqali bekorchilik, har xil fiqru fasod va g'iybat gaplar barham topadi. Shunday ma'naviy tarbiyaga daxldor faoliyatdan so'ng inson ko'nglida ham yorug'lik paydo bo'ladi. Bizningcha, ma'naviy jihatdan yaxshi tarbiya olgan shaxs o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z mas'uliyati bilan ongli ravishda, ozod fikrli inson bo'lib yashaydi. Bunday odamlar uyushgan jamiyatni, ular barpo etgan ma'naviy-ruhiy muhitini yuksalishiga sabab bo'ladi. Ularni o'zlari aql-idrok va qalb amri bilan tanlab olgan hayotiy maqsadlaridan chalg'itib ham bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Globalashuv jarayoni rivojlanayotgan jamiyatda ma'naviy inqirozdan chiqishning yangi yo'llarini izlash xalq ma'naviy an'analarga boy falsafiy madaniyatiga va ularning qadriyat salohiyatiga murojaat qilishga majbur qilmoqda. Chunki, "Hozirgi davrda globalashuv shaxsning insoniy o'lchovdagi salbiy tendensiyalari muammosi jamiyatni g'ayriinsoniylashtirish va insonni begonalashtirish"[1.45.] sifatida o'rgangan tadqiqotchilar qarashlari ma'naviy tarbiyaga zaruratni bildiradi.

Hozirgi davrda ma'naviy tarbiya sohasida mamlakat oldida turgan muhim vazifalarni bajarishda yurtga fidoyi va sadoqatli, haqiqiy vatanparvar, chuqur bilim va katta hayot tajribasiga ega bo'lgan ziyolilarga hamda nuroniy otaxon-onaxonlarga katta ishonch bildirilmoqda. "Bolalar axloq tarbiyasini oldinroq o'zi yashayotgan atrof muhit va ko'chadagi bolalardan oladilar. Bolalar suvga o'xshaydilar suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar o'sha muhitning ham shunday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko'proq yaxshi va yomon axloqni o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o'quvchidan qabul qiladilar"[2.56.]. Ma'naviy-axloqiy tarbiya murakkab jarayon bo'lib, bu ishda mahalla, oila, maktab va jamoa tashkilotlarining birgalikdagi faoliyati samara berishi bilan ifodalanadi.

O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to'y-tomosh, hashar va ma'arakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Xalqimizga xos o'zini o'zi boshqaruv tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, balki dilida, bugun hayotida chuqur joy egallagani bejiz emas. Davlatchiligimiz tarixida birinchi marta "Mahalla" Konstitutsiyaga kiritilib, uning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va maqomi qat'iy belgilab qo'yildi. Bu esa "Mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashishda, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash ko'nikmasini shakllantirish jamiyat uchun oila ma'naviyati ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1- martdagi "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, Mahalla va Nuroniy larni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son Farmonida belgilanganidek, "oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va ularning farovonlik darajasini oshirish"[3.] oilalardagi ma'naviy muhitni mustahkamlash zarurligini bildiradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Hududlarda "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada yaxshilash" maqsadida "Mahalla-tuman-viloyat-respublika" tamoyili asosida hududlar kesimida ijtimoiy-ma'naviy muhitni mustahkamlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish, bu jarayonga zamonaviy targ'ibot texnologiyalarini keng joriy etish, targ'ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni shakllantirish" belgilab qo'yilgan. Bu esa jamiyatdagi ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda yangi ma'naviy tarbiya strategiyasini takomillashtirish ehtiyojini vujudga keltiradi. Shuning uchun ham "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" konsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ma'naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi[4.].

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

Konsepsiyaga ko'ra, jamiyatda ma'naviy tarbiya strategiyasining zamonaviy texnologiyalariga sifatida oila va uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirish vazifa qilib qo'yildi. Unga ko'ra jamiyatda uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish:

birinchidan, davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

ikkinchidan, ta'lim sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

uchinchidan, davlat boshqaruvi organlari, jamoatchilik tashkilotlari, mahalla va oila institutlari orqali joriy etiladi[4.]. Bu esa jamiyatda uzluksiz ma'naviy tarbiyaga oid qarashlarni shakllantirish va yuksaltirish zaruratini vujudga keltiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, millat va xalqning ruhi, dunyoqarashi va turmush tarzini ifoda etadigan mahalla institutini rivojlantirishda uzluksiz ma'naviy tarbiya integratsiyasi jamiyatni zamon talablari asosida rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Bunda odamlarning dunyoqarashi va tafakkurini o'zgartirish masalasi uzluksiz ma'naviy tarbiya bilan aloqador ekanligi aniqlashadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Дробышевский В С, Романова Н П Одиночество введение в проблему / В С Дробышевский, Н П Романова – Москва. 2003.

2. Фитрат. А. “Рахбари нажот” асаридан. “Ўзбек педагогикаси антологияси”. 2-жилд. Тошкент. Ўқитувчи. 1999.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 1 мартдаги “Оила ва хотин-қизлар билан ишлаш, Маҳалла ва Нуронийларни қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-81-сон Фармони. *Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 02.03.2022 й., 06/22/81/0174-сон*

4. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги “Узлуksиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1059-сон Қарори. *Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.06.2020 й., 09/20/391/0777-сон*